

DAVLAT BOSHQARUVIDA OCHIQLIK VA SHAFFOFLIKNI TA'MINLASHNING KONSTITUTSIYAVIY-HUQUQIY ASOSLARI

Behzod Mirzajonov

Chust tuman Ichki ishlar bo'limi tezkor qidiruv xizmati
Terrorizmga qarshi kurashish bo'limi katta tezkor vakili, katta leytenant



Annotatsiya: Mazkur maqolada davlat boshqaruvida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlashning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari tadqiq etilgan bo'lib, bu borada Yangi O'zbekiston rahbari tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlarning huquqiy asoslari tarixiylik va solishtirish metodlaridan foydalangan holda tahlil qilingan.



Kalit so'zlar: konstitutsiya, ochiqlik, shaffoflik, huquqiy asos, xalq hokimiyatchiligi, davlat boshqaruvi.



Abstract: This article examines the constitutional and legal foundations of ensuring openness and transparency in public administration, and analyzes the legal foundations of the reforms being implemented by the leader of New Uzbekistan in this regard using historicism and comparative methods.



Keywords: constitution, openness, transparency, legal framework, popular sovereignty, public administration.



Аннотация: В данной статье рассматриваются конституционно-правовые основы обеспечения открытости и прозрачности в государственном управлении, а также анализируются правовые основы реформ, проводимых в этой области лидером Нового Узбекистана, с использованием историцизма и сравнительных методов.



Ключевые слова: конституция, открытость, прозрачность, правовая база, народный суверенитет, государственное управление.

49


Kirish. Har qanday demokratik huquqiy davlatda ma'muriy boshqaruv apparatining faoliyat doirasi, uning jamiyat bilan o'zaro munosabatlar formati va huquqiy maqomi, eng avvalo, oliy yuridik kuchga ega bo'lgan normativ-huquqiy hujjat — Konstitutsiya prinsiplari orqali muhrlanadi. Davlat boshqaruvida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlashning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarini tadqiq etish, nafaqat subyektlarning huquq va majburiyatlari nisbatini aniqlash, balki ushbu prinsiplarning

davlat hokimiyati legitimligini ta'minlashdagi fundamental rolini baholash imkonini beradi. Konstitutsiyaviy huquq fani nuqtai nazaridan ochiqlik va shaffoflik — shunchaki deklarativ xarakterdagi g'oya emas, balki xalq hokimiyatchiligi (demokratiya), inson huquqlarining ustuvorligi hamda hokimiyatlar bo'linishi prinsiplarining bevosita hosilasi va ularni amaliyotga tatbiq etishning huquqiy kafolatidir.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (yangi tahrirdagi) mamlakatimizda demokratik huquqiy davlat qurishning bosh strategik yo'nalishini belgilab berdi. Konstitutsiyaning 7-moddasida aniq mustahkamlab qo'yilganidek, "Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir ". Ushbu konstitutsiyaviy normaning moddiy va protsessual mohiyati shuni anglatadiki, davlat apparati xalq tomonidan va xalq manfaatlari uchun shakllantiriladi, demak, u o'z faoliyati xususida hokimiyat manbaiga to'liq ma'noda hisobdor bo'lishi shart. Davlat organlari faoliyatining yopiqligi (klerikalizm) xalq hokimiyatchiligi prinsipiga fundamental ravishda zid keladi. Zero, hokimiyat manbai bo'lmish xalq o'zi vakolat bergan subyektlarning (ijro etuvchi hokimiyat organlarining) nima bilan mashg'ul ekanligini, davlat budjeti mablag'larini qanday sarflayotganligini va qanday ma'muriy qarorlar qabul qilayotganligini ko'rish, bilish va nazorat qilish huquqiga ega.

Konstitutsiyaviy huquq doirasida ochiqlik va shaffoflik quyidagi uchta tizimli o'q o'rtasidagi muvozanatni ta'minlaydi:

Xalq (Hokimiyat manbai)



Ushbu uchburchak elementlarining mutanosibligi buzilsa, ya'ni davlat apparati o'zining faoliyat mexanizmlarini jamiyatdan yashirsa, u holda "konstitutsiyaviy begonalashuv" (constitutional alienation) yuzaga keladi. Bu esa xalqning o'z davlatiga bo'lgan huquqiy ishonchini emiradi. Davlat boshqaruvida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlashning konstitutsiyaviy-huquqiy asosi fuqarolarning fundamental huquqlari blokida subyektiv huquq sifatida namoyon bo'ladi. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida axborot olish va tarqatish erkinligi tubdan modernizatsiya qilindi. Konstitutsiyaning 33-moddasida har kimning internet jahon axborot tarmog'idan foydalanish hamda axborotni erkin izlash, olish va tarqatish huquqiga ega ekanligi belgilab qo'yilgan. Mazkur normada ilk bor "Internet jahon axborot tarmog'i" tushunchasining konstitutsiyaviy darajada mustahkamlanishi davlat boshqaruvida raqamli ochiqlik (E-government) kontsepsiyasining konstitutsiyaviy poydevori hisoblanadi. Davlat endilikda nafaqat axborot berishi, balki ushbu axborotni fuqarolar eng ko'p foydalanadigan raqamli platformalar orqali yetkazish uchun texnik-huquqiy sharoit yaratishi konstitutsiyaviy majburiyatga aylandi.

Shuningdek, konstitutsiyaning 34-moddasida "Davlat organlari va tashkilotlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, ularning mansabdor shaxslari har kimga o'z huquqlari hamda qonuniy manfaatlariga daxldor bo'lgan hujjatlar, qarorlar va boshqa materiallar bilan tanishish imkoniyatini ta'minlashi shart" degan tamoiil mustahkamlanib qo'yildi. Ushbu norma ma'muriy-huquqiy munosabatlarda subyektlarning tenglik prinsipini ta'minlaydi. Davlat organi fuqaro ustidan jazo chorasi qo'llayotganda yoki unga nisbatan ma'muriy hujjat qabul qilayotganda, barcha "ish materiallari"ni ochiq ko'rsatishga majbur. Bu konstitutsiyaviy huquq ma'muriy sudlovda va ma'muriy tartib-taomillarda "qurol-yarog'lar tengligi" (equality of arms) prinsipini kafolatlaydi. Mazkur konstitutsiyaviy norma talablarining amaliy natijasi sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqlik darajasini oshirish va baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-154-sonli farmonini keltirib o'tishimiz mumkin. Mazkur farmonning 2-bandi yakunida "Ochiqlik indeksini hisoblash natijalari har yili 1-aprelga qadar Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi (keyingi o'rinlarda — Agentlik) tomonidan "eanticor.uz" elektron platformasi va ommaviy axborot vositalarida e'lon qilib boriladi", — deya belgilanganligi ham ochiqlik siyosatining ham raqamlashtirilayotganligini ko'rsatadi.

Hokimiyatlar bo'linishi prinsipi va ochiqlikning parlamentar o'lchovi haqida to'xtalganda, konstitutsiyaning 11-moddasida mustahkamlab qo'yilgan hokimiyatlar bo'linishi prinsipi davlat boshqaruvida ochiqlik mexanizmlarining ishlashini taqozo etadi. Ijro etuvchi hokimiyat (Vazirlar Mahkamasi, vazirlik va idoralar) faoliyatining shaffofligi qonun chiqaruvchi hokimiyat (Oliy Majlis) tomonidan amalga oshiriladigan parlament nazoratining samaradorligini belgilaydi.

Yangi konstitutsiyaviy islohotlar doirasida Parlamentning ijro etuvchi hokimiyat ustidan nazorat funksiyalari sezilarli darajada kengaytirildi. Xususan:

- Hukumat a'zolarining hisobotlarini eshitish;
- Parlament so'rovi va deputat so'rovi institutlari;
- Budjet mablag'larining maqsadli sarflanishi ustidan davlat auditi (Hisob palatasi faoliyati orqali).

Ushbu nazorat mexanizmlarining barchasi davlat boshqaruvida moliya-iqtisodiy shaffoflikni talab qiladi. Konstitutsiyaviy darajada budjet ochiqligining belgilanishi korrupsiyaviy xavflarni kamaytirish va davlat xarajatlarining xalq manfaatlariga xizmat qilishini ta'minlashning eng oliy huquqiy instrumentidir.

Ammo konstitutsiyaviy cheklovlar va ochiqlik chegarasining huquqiy muammolari ham mavjudki, Konstitutsiyaviy huquq nazariyasida ochiqlik prinsipining o'zi mutloq (absolute) huquqlar sirasiga kirmaydi. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt talablariga muvofiq, axborot erkinligi va davlat organlari faoliyatining ochiqligi ma'lum mezonlar asosida cheklanishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 33-moddasi ikkinchi qismida ushbu cheklovlar aniq belgilangan: "Axborotni izlash, olish va tarqatishga bo'lgan huquqni cheklashga faqat qonunga muvofiq hamda konstitutsiyaviy tuzumni, insonlarning sog'lig'ini, ijtimoiy axloqni, boshqa

shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligini hamda davlat sirini yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirni saqlash maqsadida zarur bo'lgan darajada yo'l qo'yiladi."

Tadqiqot doirasida ushbu cheklovlarning ma'muriy-huquqiy amaliyotda qo'llanilishi bilan bog'liq jiddiy doktrinal muammo yuzaga chiqadi. Davlat organlari ko'pincha o'z faoliyatidagi kamchiliklarni yashirish yoki jamoatchilik nazoratidan qochish maqsadida axborotlarni asossiz ravishda "xizmat doirasida foydalanish uchun" (XDFU) yoki "maxfiy" toifasiga kiritish tendensiyasiga ega. Konstitutsiyaviy proporsionallik (mutanosiblik) prinsipi talab qiladiki, har qanday cheklov ko'zlangan qonuniy maqsaddan oshib ketmasligi va jamiyatning axborotga bo'lgan ehtiyojini bo'g'ib qo'yimasligi kerak. Shuning uchun, maqolaning ushbu qismida ma'muriy organlar tomonidan axborotlarni maxfiylashtirish vakolatini qat'iy konstitutsiyaviy nazoratga olish, "sir" toifasiga kiruvchi ma'lumotlarning aniq va tor doiradagi reyestrini faqatgina qonun (qonunosti hujjati emas) darajasida belgilash zarurati asoslanadi.

Konstitutsiyaviy islohotlar prizmasida ochiqlik va shaffoflik evolutsiyasini qiyosiy tahlili 2023-yilda qabul qilingan yangi tahrirdagi konstitutsiya davlat boshqaruvining ochiqligi masalasida mutlaqo yangi huquqiy davrni boshlab berdi. Oldingi tahrirdagi Konstitutsiyaviy normalar bilan qiyosiy tahlil quyidagi tub konseptual farqlarni ko'rsatadi:

Konstitutsiyaviy mezon	Oldingi tahrirdagi Konstitutsiya matni	Yangi tahrirdagi Konstitutsiya matni (Amaldagi)	Ilmiy-huquqiy ahamiyati (12.00.02 nuqtai nazaridan)
Raqamli ochiqlik kafolati	Mayjud emas edi. Axborot olish umumiy tarzda belgilangan.	Internet jahon axborot tarmog'idan erkin foydalanish huquqi to'g'ridan-to'g'ri mustahkamlandi (33-modda).	Elektron davlat boshqaruvi va smart-ma'muriyatchilikning (Smart Governance) konstitutsiyaviy legitimligini ta'minlaydi.
Ekologik va shaharsozlik shaffofligi	Umumiy ekologik majburiyatlar	Shaharsozlik hujjatlari loyihalarini jamoatchilik	Moddiy ma'muriy qarorlar qabul qilishda fuqarolarning veto yoki

	doirasida cheklangan edi.	muhokamasidan o'tkazish majburiyati kiritildi (49-modda).	ishtirok etish huquqini konstitutsiyaviy darajaga ko'tardi.
Budjet mablag'lari shaffofligi	Parlamentning umumiy budjet vakolatlari doirasida edi.	Davlat budjetining shakllantirilishi va ijro etilishi ustidan jamoatchilik nazorati konstitutsiyaviy prinsip sifatida belgilandi (148-modda).	"Tashabbusli budjet" (Open Budget) kabi zamonaviy ma'muriy-moliyaviy institutlarning konstitutsiyaviy poydevori yaratildi.

Ushbu qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, davlat boshqaruvida ochiqlik faqatgina axborot berish majburiyatidan "inklyuziv boshqaruv" (Inclusive Governance) darajasiga ko'tarildi. Endilikda fuqaro nafaqat passiv kuzatuvchi, balki davlat budjetini taqsimlashda, shaharsozlik qarorlarini qabul qilishda bevosita ishtirok etuvchi faol konstitutsiyaviy subyektg aylanadi.

Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan mazkur islohotlarning mazmuni va ko'lami haqida so'z yuritib mamlakat rahbari "Yangi O'zbekiston orzusi, bugungi kunlarimizga nisbatan aytganda, hozirga davrning taqozosi, uning asl qiyofasini, harakatlantiruvchi kuchlari va omillarini belgilaydigan g'oyaviy-ma'naviy asos, xalqimizga xos yaratuvchanlik shijoati va keng ko'lamli islohotlarimizning yaqqol ifodasidir", – degan edilar. Bu boradagi ishlarni samarali amalga oshirish uchun esa, albatta, mustahkam jamoatchilik nazorati zarur. Jamoatchilik nazoratini ochiqlikning konstitutsiyaviy-huquqiy instituti sifatida o'rganadigan bo'lsak, ochiqlik va shaffoflik o'z-o'zidan maqsad emas, balki u jamiyatning davlat ustidan samarali nazorat o'rnatishi uchun huquqiy muhit yaratadi. Konstitutsiyaning 36-moddasida fuqarolarning davlat ishlarini boshqarishda bevosita va o'z vakillari orqali ishtirok etish huquqi mustahkamlangan bo'lib, ushbu ishtirokning eng muhim shakli jamoatchilik nazoratidir.

Jamoatchilik nazoratining konstitutsiyaviy-huquqiy tabiati quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- Davlat organlari faoliyatining qonuniyligi va samaradorligini mustaqil baholash;

- Korrupsiyaviy omillarni va ma'muriy o'zboshimchalikni aniqlash hamda ularga barham berish;

- Jamiyat va davlat o'rtasidagi "teskari aloqa" (feedback) mexanizmini ta'minlash.

Biroq, konstitutsiyaviy deklaratsiyadan real ma'muriy amaliyotga o'tishda jamoatchilik nazorati subyektlarining (NNT, OAV, fuqarolar) huquqiy ta'sir choralari yetarli emasligi ko'rinadi. Jamoatchilik nazorati natijasida aniqlangan qonunbuzilishlar yuzasidan ma'muriy organlarga yuboriladigan ta'sir choralari (xulosalar, tavsiyalar) ko'pincha majburiy yuridik kuchga ega bo'lmaydi. Bu esa ushbu institutning effektivligini pasaytiradi va uni "tishsiz" sanksiyaga aylantirib qo'yadi.

Xulosa. Davlat boshqaruvida ochiqlik va shaffoflik — xalq hokimiyatchiligi hamda inson huquqlari ustuvorligi prinsiplarining konstitutsiyaviy-huquqiy kafolati bo'lib, u davlat apparati va jamiyat o'rtasidagi ijtimoiy shartnomaning huquqiy asosi hisoblanadi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya raqamli ochiqlik, budget shaffofligi va ekologik inklyuzivlikni konstitutsiyaviy darajaga ko'tarish orqali mamlakatimiz ma'muriy huquq tizimida "Ochiq davlat" modelining kontseptual asoslarini yaratdi.

Ilmiy taklif: Ma'muriy organlar tomonidan axborot erkinligini asossiz cheklash amaliyotiga barham berish maqsadida, Konstitutsiyaning 33-moddasi talablaridan kelib chiqib, "Davlat sirlarini saqlash to'g'risida"gi qonun hujjatlarini tubdan qayta ko'rib chiqish lozim. Unda "maxfiy" toifasiga kiritilishi taqiqlangan axborotlarning (masalan, ekologik holat, budget xarajatlari, mansabdor shaxslarning huquqbuzarliklari statistikasi) qat'iy ro'yxatini belgilash hamda axborotni asossiz maxfiylashtirganlik uchun ma'muriy javobgarlikni kuchaytirish taklif etiladi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2016.
3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.
4. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. – Toshkent, 2025-yil dekabr.
5. Mirziyoyev Sh.M. Davlat boshqaruvi sifatini oshirishda yangi bosqich boshlandi. – Toshkent, 2026-yil 22-may.
6. Saidov A.X. Jamoatchilik nazorati – fuqarolik jamiyatini rivojlantirish omili // Huquq va burch. – 2018. – №5. – B. 12–15.
7. Odilqoriyev X.T. Konstitutsiyaviy huquq. – Toshkent: Adolat, 2014.
8. Mamatov M. O'zbekistonda jamoatchilik nazoratining zamonaviy shakllari // Demokratlashtirish va inson huquqlari. – 2021. – №1. – B. 45–51.
9. Alimov B. Davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning huquqiy asoslari // Yurist axborotnomasi. – 2019. – №3. – B. 34–39.
10. Bovens M., Goodin R.E., Schillemans T. (eds.). The Oxford Handbook of Public Accountability. – Oxford: Oxford University Press, 2014. – 800 p.

11. Hood C., Heald D. (eds.). Transparency: The Key to Better Governance? – Oxford: Oxford University Press, 2006. – 238 p.
12. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Yangi tahrir. 2023-yil 30-aprel. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023.
13. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida”gi Qonuni, 2014-yil 5-may, O‘RQ-369-son. – Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi (LexUZ).
14. O‘zbekiston Respublikasining “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi Qonuni, 2018-yil 12-aprel, O‘RQ-474-son. – Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi (LexUZ).
15. O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni, 2017-yil 3-yanvar, O‘RQ-419-son. – Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi (LexUZ).
16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqlik darajasini oshirish va baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2022-yil 14-iyundagi PF-154-son Farmoni.
17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni.